



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 18 апрель, № 79 (8974)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



«BORI ELGA YAXSHILIG' QILG'ILKI, MUNDIN YAXSHI YO'Q...»



To'le yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Har gal Zahiriddin Muhammad Boburning
ushbu misralarini o'qiganimda yuragimni og'ir
tosh bosgandek bo'laveradi. Satrlar qa'riga
singigan g'amgin ruh nafaqat uning ijodiga,
balki umr mazmuniga ham singib ketgandek
go'yo.

Kuni kecha davlatimiz rahbarining Andijon
shahridagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida bo'lib
o'tgan tadbirdagi nutqida Yangi Andijon
shaharchasiga Bobur shahri deb nom berish
to'g'risidagi taklifi yuragim tub-tubiga cho'kib
ketgan ana shu g'am-g'ussalarni bir soniyada
eritib yubordi. Sevinchdan vujudim titradi.

Binobarin, Prezidentimiz qayd
etganidek, Zahiriddin Muhammad
Bobur dunyoning qaysi yerida,
qaysi o'lkasida bo'lmasin, bir umr
Vatan sog'inchi bilan yashadi.
Bugun buyuk ajdodimizning
armonlari ushaldi, ul zot o'z
yurtiga ruhan qaytib keldi.

Mazkur voqealik butun xalqimizni,
ayniqsa, andijonliklarni to'liqlantirib
yuborgani rost. Nega deganda,
Andijon ahli xalqni tarixiy xotirasidan,
milliy ildizlaridan ayirishga qaratilgan

siyosat hukm surgan o'sha og'ir,
mustabid tuzum davrlarida ham
o'zining bu ulug' farzandi yodini
qalbida e'zozlab-ardoqlab yashadi.
Turi tazyiqlarga qaramay bebaho
merosini o'qib-o'rgandi, asrab-
avayladi. Shukrki, bugun tarixiy
adolat tiklandi. Bu kunlarni ko'rish,
uning zavqi bilan yashash qanchalar
quvonchli ekanini so'z bilan ifoda etib
bo'lmaydi!

Xayolot ummoniga g'arq
bo'lgancha ortda qolgan umrimga



Tashrifdan keyingi o'ylar

razm solaman. Ne kunlarni ko'rmasdek
ekan?! Zamon zayli bilan jamiyatning
turi bo'g'inlarida faol ishtirok etdim.
Ta'bir joiz bo'lsa, ba'zan to'fonli,
gohida quyoshli onlarga duch
keldim. Tashvishlarni halol mehnat,
ezgu amal bilan aritib, quvonchlar
bardavomligi sari intildim. O'tgan
umrim davomidagi barcha erishilgan
yutuqlar, muvaffaqiyatlarni tarozining
pallasiga qo'ysam, shu kungacha
bo'lgan damlar bir yonu bugungi totli,
farahbaxsh kunlar bir tomon bo'ladi!
Axir kim o'yabdi deysiz, yorug'
tonglar nafaqat yangi kunni, balki
yangi davrni ham boshlab beruvchi
imkoniyatlar eshiklarini ochadi, deb!..

Yangi zamon ruhi

To'g'ri, kechagi kun, sodir bo'lgan
voqe'liklar, goh yaxshi, goh sinovli
damlar ortda qoldi, tarixga aylandi.

Ular barchasi andijonliklar
irodasini chiniqtirdi, tajribasini
oshirdi. Zamonning zaylida
toblangan xalq esa davlatimiz
rahbari rahnamoligida o'z qo'li, aql-
idrok bilan davrni o'zgartirmoqda.
Endi hammasi o'zgacha! Bugungi
Andijon kechagi Andijon emas.
Atrofga nigoz tashlayman: shahar
o'zgaragan, hududlar chiroy
ochgan, hatto daraxtlar gulzorlar
boshqacha. Bugunidan minnatdor,
ertangi kunidan umidvor xalqi
ham boshqacha. Yangi davr, yangi
zamonning ruhi nafaqat tevarak-
atrofni, balki insonlar ruhiyatini ham
o'zgartirib yubordi!

Men bir umr davlat xizmatida
bo'ldim. Amalg oshirilayotgan
islohotlarning oldingi safida
odimlashga harakat qildim. Shuning
uchun bo'lsa kerak, O'zbekiston
faxriylarining ijtimoiy faoliyatini

qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar"
jam'armasining viloyat bo'linmasi
hamda xalq deputatlari viloyat
Kengashi raisi etib tayinlanishida
zimmamga avvalgidan ham ko'proq
mas'uliyat hissini oldim. Bugun
kechagidan, ertaga bugungidan-
da ko'proq xizmat qilishni dilimga
tugdim. Shu bois hududdagi har
bir jarayondan chetda qolmay o'z
hissam bilan qatnashishga intilaman.
Foydalanishga topshirilayotgan
ishlab chiqarish obyektlaridan tortib
xonadonlardagi tomorqalardan
foydalanishgacha bo'lgan
bosqichlarning negizida xalqimizning
iqtisodiy va ijtimoiy manfaatini himoya
qilish g'oyasi mujassamligiga guvoh
bo'laman. Bunda Prezidentimizning
viloyatga tashriflari muhim ahamiyat
kasb etayotgani e'tiborlidir.



QAYTA TIKLANAYOTGAN DIPLOMATIYA

11 – 13-aprel kunlari Turkiya
Respublikasining Antalya
shahrida xalqaro diplomatik
maydonlarda yuksak e'tirof
etilgan "Antaliya diplomatiya
forumi – 2025" bo'lib o'tdi.
An'anaga ko'ra mazkur forum
Turkiya Tashqi ishlar vazirligi
tomonidan tashkil etildi.

Forum

Ushbu nufuzli tadbirda O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlisi Senati
Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq
Safoyev ishtirok etdi.

Forumning bu yilgi mavzusi
"Bo'linib ketgan dunyoda
diplomatiyani qayta tiklash" bo'lib, u
bugungi notinch va ziddiyatlarga boy
global muhitda diplomatiyaning hal
qiluvchi rolini yana bir bor muhokama
markaziga olib chiqdi.

S. Safoyev forum doirasida
o'tkazilgan asosiy sessiyalarda
nutq so'zlab, O'zbekistonning
ochiq va konstruktiv tashqi
siyosatini, mintaqaviy diplomatiyani
mustahkamlash borasidagi
yondashuvlarini atroflicha
yoritdi.



Korrupsion omillarning oldini olish: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YECHIMLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston
"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi
tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati"
bo'lib o'tdi. Unda deputatlar "Sog'liqni saqlash
sohasida korrupsion omillarning oldini olish bo'yicha
amalg oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masalani
muhokama qildi.

"Hukumat soati"

Kun tartibidagi ushbu masala
yuzasidan deputatlarining
savollariga O'zbekiston sog'liqni
saqlash vaziri A. Xudoyorov javob
berdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi
yillarda mamlakatimizda
Prezidentimiz boshchiligida
sog'liqni saqlash tizimini tubdan
isloh qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish
sifati va samaradorligini oshirish,
sohaga yangi boshqaruv
usullarini joriy etish, aholini sifatli
dori-darmon bilan ta'minlash
borasida keng qamrovli ishlar
hayotga tatbiq qilinmoqda.

Ayniqsa, tibbiyot xodimlari va
farmatsevtika kompaniyalari
o'rtasidagi zimdan kelishuvlarning
oldini olish, "Elektron retsept"
tizimini joriy etishga alohida e'tibor

qaratilayotir.
Xususan, yagona tibbiyot
axborot tizimi (DMED)da "Elektron
retsept" moduli ishlab chiqildi.
Bu modul dori vositalarining
dozalari va shakllarini hisobga
olib, retseptlarni elektron shaklda
berish, ularning markirovkasini
nazorat qilgan holda sotish,
hisobot yuritish jarayonini
avtomatlashtirish hamda bemorlar
uchun mobil ilova orqali retseptlar
harakatini kuzatib turish imkonini
beradi.

Shuningdek, ushbu tizimning
ishlashi uchun dori vositalarining
xalqaro patentlanmagan
nomlari, shakllari, dozalari va
o'lchov birliklarini o'z ichiga
olgan ma'lumotlar bazasi ham
shakllantirilgan. Davlat tibbiy

sug'urtasi mexanizmlarini joriy
etish doirasida "Elektron retsept"
modulida "reimbursatsiya dasturi"
yo'lga qo'yilgan. Ya'ni bemorning
dorixonaga borib axborot tizimiga
kiritilgan elektron retsept bilan
shifokor yozib bergan dorini olish
imkoni yaratildi.

"Hukumat soati"da deputatlarga
sog'liqni saqlash sohasida axborot
tizimlari yagona kompleksini joriy
etish, boshqaruv jarayonidagi
ortiqcha tartib-taomillarini
qisqartirish, kadrlarni ishga qabul
qilish bilan bog'liq korrupsion
holatlarning oldini olish borasida
ko'rilayotgan chora-tadbirlar
yuzasidan ham ma'lumotlar
berildi.

A. Xudoyorovning qayd
etishicha, vazirlik bilan
birgalikda Yagona integrator
– "UZINFOCOM" tomonidan
sog'liqni saqlash tizimidagi
jarayonlarni avtomatlashtirish
va undagi axborot tizimlarining
yagona kompleksini joriy etish
maqsadida tizimli ishlar olib
borilmoqda.

Jumladan, aholi va shifokorlar
uchun mobil ilovalar yaratilgan.
"DMED" axborot tizimi 2 571

ta birlamchi tibbiy sanitariya
yordami muassasasidan 2 475
tasiga o'rnatilgan. Hozirgi kunda
zarur jihozlarni xarid qilish va
o'rnatish, tibbiyot xodimlarini
tizimda ishlashga o'qitish va
ma'lumotlarni axborot tizimiga
kiritish ishlari jadal olib
borilmoqda.

Bundan tashqari, vazirlik
tizimida tibbiyot va farmatsevtika
xodimlarining malakasini
baholash markazini tashkil etish
orqali mutlaqo yangi, shaffof va
obyektiv malaka baholash tizimi
ham yaratilgan. Unda zamonaviy
axborot texnologiyalarini
joriy qilish orqali tibbiyot va
farmatsevtika xodimlariga malaka
toifalarini berish funksiyalari
amalg oshirilmoqda.

Deputatlar sohada
bajarilayotgan ishlarni e'tirof
etib, ajratilayotgan byudjet
mablag'laridan oqilona
foydalanish, xususan, davlat
xaridlarini amalga oshirishda
samaradorlik va shaffoflikni
ta'minlash borasida qanday ishlar
olib borilayotgani bilan qiziqdilar.



Mahalliy Kengashlarda SOG'LOM TURMUSH TARZI – UMUMMILLIY HARAKAT

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining
navbatdagi sessiyasi mavzusi sog'lom turmush
tarzini ommalashtirish masalalari muhokamasiga
bag'ishlandi.

Mazkur sessiya Oliy Majlis Senati hamda
Qonunchilik palatasining 2025-yil 20-fevraldagi
qo'shma xati asosida tashkil etildi.

Sessiyada hududga
biriktirilgan parlament
a'zolari, xalq deputatlari
Toshkent shahar Kengashi
deputatlari, soha
mutaxassislari hamda
jamoatchilik vakillari
qatnashdi.
Tadbirda ta'kidlanganidek,
Prezidentimiz 2024-yil
noyabr oyida parlament
palatalarida so'zlagan
nutqida jamiyatda sog'lom
turmush tarzini qaror toptirish
masalasiga alohida e'tibor
qaratgan edi. Shu asosda
Senat va Qonunchilik
palatasi tomonidan aholi
o'rtasida sog'lom turmush
tarzini ommalashtirish
bo'yicha Qoraqalpog'iston
Respublikasi Jo'qorg'i
Kengesi, xalq deputatlari
viloyatlar va Toshkent shahar
Kengashlari uchun tavsiyalar
ishlab chiqilib, mahalliy
Kengashlarga
yuborildi.



O'ZARO HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN MULOQOTLAR

Uchrashuv yakunida tomonlar parlamentlararo muloqotlarni yanada mustahkamlash, ikki tomonlama hamkorlik kun tartibini kengaytirish va xalqaro parlament tuzilmalari doirasida muvofiqdoshlikni ta'minlashga tayyor ekanligini tasdiqladi.

Xuddi shunday samimiy muloqotlardan yana biri Tojikiston Respublikasi Majlisi milliy Raisi Rustami Emomali bilan bo'lib o'tdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Rustami Emomalini Tojikiston Respublikasi parlamenti rahbari lavozimiga saylangani bilan tabriklab, kelgusida ikki davlat qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida yuqori darajadagi hamkorlik va yaqin aloqalar yanada mustahkamlanishiga ishonch bildirdi. Suhbat davomida ikki tomonlama

hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilinib, O'zbekiston – Tojikiston strategik sherikligi ikki davlat rahbarlarining hamfikrligi va o'zaro ishonchi asosida rivojlanayotgani ta'kidlandi.

Parlamentlarning yangi tarkibi shakllangan munosabati bilan parlamentlararo hamkorlikni faollashtirish rejalari muhokama qilindi. Tomonlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazorati masalalarini kun tartibiga kiritgan holda "O'zbekiston – Tojikiston" do'stlik guruhi yig'ilishini o'tkazishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv yakunida tomonlar ikki do'st davlat o'rtasidagi parlamentlararo muloqotni mustahkamlash va har tomonlama sheriklikni chuqurlashtirish niyatida ekanligini tasdiqladi.

"Xalq so'zi".

MDH PARLAMENTLARARO ASSAMBLEYASI KENGASHINING MAJLISI BO'LIB O'TDI

Avval xabar berganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining bahorgi sessiyasi tadbirdarida ishtirok etmoqda va Parlamentlararo Assambleya Kengashining majlisida qatnashdi.

Anjuman

Kengash majlisining kun tartibidagi masalalar muhokamasiga o'tishdan avval Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasi Kengashi raisi, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federal Kengashi Raisi V. Matviyenko Parlamentlararo Ittifoqning Toshkent shahrida o'tkazilgan 150-yubiley assambleyasi va uning natijalariga to'xtalib, mazkur anjuman yuqori saviyada tashkil etilgan, mehmon qabul qilish va tadbir o'tkazishda ko'rsatilgan yuksak mahorat hamda mas'uliyatni alohida e'tirof etdi. Tanzila Kamalovna va uning jamoasini ushbu nufuzli tadbirni yuksak darajada uyushtirgani bilan tabriklab,

O'z navbatida, Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva mazkur assambleyada MDH davlatlari parlament delegatsiyalarining faol ishtiroki, ularning qabul qilingan hujjatlarga qo'shgan hisssasi hamda ilgari surgan takliflari muhim

ahamiyatga ega ekanini aytib o'tdi. Shuningdek, kelgusida ham bunday yirik xalqaro anjumanlarni o'tkazishda hamkorlik qilishga doimo tayyor ekanini alohida ta'kidlab,

Shundan so'ng kun tartibidagi masalalar ko'rib chiqildi. Ishtirokchilar MDH PA xalqaro kuzatuvchilarining Belarus Respublikasi Prezidenti saylovi va Tojikiston parlament saylovi monitoringi natijalariga e'tibor qaratildi.

Xususan, MDH PA missiyasi koordinatori, Oliy Majlis Senati Sud-huq qonun bo'limi rahbari, korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi A. Eshmuratov 2025-yil 2-mart kuni Tojikiston parlamentiga bo'lib o'tgan saylovni kuzatish natijalari to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Shuningdek, Kengash majlisida MDH Parlamentlararo Assambleyasining 2024-yildagi faoliyati sarhisob qilinib, kelgusida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan xalqaro sammitlarga tayyorgarlik masalalari muhokama etildi.

"Xalq so'zi".



Korrupsion omillarning oldini olish: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YECHIMLAR

Vazirning ta'kidlashicha, davlat xaridlarini amalga oshirishda "Ye-Xarid" onlayn tizimi faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim davlat xaridlarini elektron, ochiq va shaffof tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. Barcha tender va xaridlar internet orqali amalga oshirilib, bu jarayonda qatnashuvchilarga tender natijalari, shartlar va ularning hujjatlari batafsil ko'rsatiladi. Shu bilan birga, vazirlikda 2024-yilda "Situatsion markaz" (masofaviy nazorat) tashkil etilib, sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlarni monitoring qilib borish yo'lga qo'yilgan.

"Hukumat soati"da xalq vakillari davlat tomonidan aholiga bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va beriladigan dori vositalari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shaffof tarzda yetkazish hamda bu boradagi korrupsion omillarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilayotganini so'radi.

Vazirning ma'lum qilishicha, bugungi kunda ushbu ma'lumotlar

vazirlikning rasmiy manbalari, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda berib kelinayotib. Bu to'g'ridagi tegishli buyruq va normativ hujjatlar hududiy sog'liqni saqlash

tomonidan sohada raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda shaffof tanlov tizimini keng joriy etish hamda tizim istiqboliga



organlarining saytlari, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan. Kafolatlangan hajmga kirgan tibbiy xizmatlar ro'yxati esa tibbiyot muassasalarida aholi uchun ko'rinarli bo'lgan joylarga ilib qo'yilgan.

"Hukumat soati"da deputatlar

qaratilgan boshqa bir qator takliflar berildi. Shuningdek, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlash, vazirlik bilan yaqindan ishlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

QAYTA TIKLANAYOTGAN DIPLOMATIYA

Jumladan, u bugungi global ziddiyatlar fonida xalqaro institutlarning ishonchligini qayta tiklash, diplomatiya orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlash hamda mintaqaviy va global darajadagi hamkorlikni mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidlab,

Tadbir doirasida S. Safoyev qator mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda yetakchi ekspertlar bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi. Ularda ijtimoiy-siyosiy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, yoshlar diplomatiyasi, ekologik barqarorlik va axborot makonida o'zaro ishonchni mustahkamlashga doir masalalarga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston delegatsiyasining forumdagi faol ishtiroki davlatimizning mintaqaviy va global miqyosdagi ochiq, barqaror va uzoq muddatli diplomatik siyosatining namoyoni bo'ldi.

"Xalq so'zi".

SOG'LOM TURMUSH TARZI – UMUMMILLIY HARAKAT

Sessiyada so'zga chiqqan senator Gulnora Ma'rufova sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikni oshirishning ahamiyati, shuningdek, yurtimizda ushbu sohada olib borilayotgan tizimli islohotlar va chora-tadbirlar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqida batafsil to'xtaladi.

Ayniqsa, oxirgi yillarda sog'liqni saqlash va sport sohalariga ajratilayotgan davlat mablag'lari sezilarli darajada oshgani, yurtimizda sport obyektlari soni ko'paygani, tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish va aholining o'rtacha umr ko'rish

davomiyligi ortib borayotgani qayd etildi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi sabab aholi o'rtasida jismoniy faollikning pasayishi, nosog'lom ovqatlanish va zararli odatlar tarqalishi oqibatida ayrim muammolar ham saqlanib qolayotgani alohida ta'kidlandi.

Sessiya ishtirokchilari sog'lom turmush tarzini keng joriy etishda deputatlar, mutaxassislar hamda jamoatchilikning o'zaro hamkorligi muhim ekanini ta'kidlab, bu ishni umummilliy harakatga aylantirish zarurligini aytishdi.

"Xalq so'zi".

RAQAMLAR ORTIDAGI STRATEGIYA

YOKI ANDIJONDA YIL YAKUNIGA QADAR 300 MINGDAN ZIYOD ISH O'RINLARI QANDAY YARATILISHI XUSUSIDA

Davlatimiz rahbari 15-16-aprel kunlari Andijonga tashrifi davomida viloyatda 2025-yilda erishilishi rejalashtirilgan asosiy maqsadlarga oid taqdimot bilan tanishdi. Unda yil yakuniga qadar 305 ming nafar aholini daromadli ish bilan ta'minlash maqsad qilingani aytiladi.

Mulohaza

Bu shunchaki raqamlar emas. Uning ortida minglab insonlar hayoti, oilalar farovonligi, yoshlar kelajagi va butun viloyatning iqtisodiy barqarorligi turibdi. Sodda aytganda, uch yuz mingdan ziyod insonlarning ishga joylashishi ortidan yana kamida 600 ming kishining turmush tarzi o'zgaradi, bu – o'rtacha 1 million odamning turmushi yaxshilanishi demak.

Xo'sh, ushbu maqsadga qanday erishiladi? Ya'ni raqam ortidagi strategiya qaysi sohalarni qamrab olgan?

Taqdimotda bu yo'lda amalga oshiriladigan ishlar raqamlar misolida umumiy keltirib o'tildi. Jumladan, 2025-yilda 5 mlrd. 700 mln. dollarlik 166 ta investitsiyaviy loyiha ijrosi uddalanadi. 31 turdagi yangi mahsulot olish yo'lga qo'yilib, 1,5 mlrd. dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. Korxonalarini barqaror energiya bilan ta'minlash uchun 65 megavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Endi ushbu ishlar qaysi sohalarni rivojlantirish orqali bajarilishi xususida to'xtalib o'tsak. Bilamizki, Andijon sanoat salohiyati hududlaridan biri sanaladi. Yangi

ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali katta bandlik salohiyati yaratiladi. Masalan, to'qimachilik, avtosanoat, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarda minglab yangi ish o'rinlari shakllanadi.

Shuningdek, Andijon – paxtachilik, bog'dorchilik va sabzavot yetishtirish sohalarida ham katta tajribaga ega hududlardan biri. Yengil sanoat bilan bog'liq klasterlar (masalan, paxtadan matogacha bo'lgan zanjir) bevosita qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish orqali o'zini o'zi band etish imkoniyatlari kengayadi.

Ish o'rinlari yaratish haqida gap ketganda, xizmat ko'rsatish sohasini ham unutmash kerak.

Zero, bugungi kunda savdo, umumiy ovqatlanish, logistika, turizm va boshqa xizmat tarmoqlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali ishsizlikni kamaytirish yaxshi samara berib kelmotda. Bu o'rinda, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bandlikka oid rejalarning muhim qismi bu, shubhasiz, inson kapitalidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, har bir ish o'rniga munosib mutaxassis tayyorlash, yoshlarni bozor talablariga mos kasblarga o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish lozim. Bu nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki mahsuldorlikni ham ko'paytiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 305 ming ish o'rnini yaratish bu faqat viloyatning bugungi muammolarini hal etibgina qolmaydi, balki

uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga yo'l ochiladi. Va bu orqali fuqarolarning mamlakat ichida ish topish imkoniyatlari kengayadi, mehnat muhojirligi kamayadi, yoshlar orasida ishsizlik ko'rsatkichi pasayadi, aholining real daromadlari ortadi.

Prezidentimizning Andijonga tashrifi viloyat tarixida yangi sahifa ochmoqda. Odamlarning kayfiyatini ko'tarib, ularni yangi marralar sari ruhlantirmoqda. Zotan, maqsad ham shu – odamlar daromadini ko'paytirish, xarid qobiliyatini oshirish va bandligini ta'minlash orqali ularni hayotdan rozi qilish.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlar,
tashqi iqtisodiy aloqalar,
xorijiy investitsiyalar va turizm
masalalari qo'mitasi a'zosi.

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

Bugungi kunda sun'iy intellekt nafaqat texnologiya, balki iqtisodiyot, ta'lim, huquq, axloq, xavfsizlik va hayotimizning boshqa muhim sohalariga oid murakkab masalalarga kirib bormoqda. Internetda tarqatilayotgan sun'iy ravishda yaratilgan, soxta ovoz hamda tasvirlarga asoslangan kontentlar shaxs sha'ni, obro'si va huquqlari uchun jiddiy tahdid solayotgani ham ayni haqiqat.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida birinchi o'qishda ko'rib chiqilgan qonun loyihasi bilan sun'iy intellektdan g'araz maqsadlarda foydalanilganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Shahnoza Xolmahamatova** loyiha "sun'iy intellekt" tushunchasining huquqiy ta'rifini ilk bor qonunchilik darajasida aniq belgilanayotganini ta'kidlab,

"Qonun loyihasida sun'iy intellektni insonning huquqlariga qarshi qo'llashga yo'l qo'ymaslik va bunday harakatlarga uchun javobgarlikni belgilash, shuningdek, axborot resurslarini yaratishda hamda axborot tizimlari ishida sun'iy intellektdan foydalanishning umumiy qoidalari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratilgan axborot resurslariga markirovka qo'yishi kabi majburiyatlar nazarda tutilmoqda", deydi deputat.

"Milliy tiklanish" DP

Qonunchilik palatasining shu hafta boshida bo'lib o'tgan majlisida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko'rib chiqilib, qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Bekmirza Eshmirzayev** loyihadagi ayrim normalar, jumladan, 35-moddasining 1-qismi, to'rtinchi xatboshisida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun sud tomonidan muayyan muddatga transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarni profilaktik hisobga olish ko'zda tutilayotganiga jiddiy e'tiroz bildirdi.

"Bizningcha, transport boshqarish huquqidan mahrum etilganing o'zi yetarli, uni yana profilaktik hisobga olib, profilaktika inspektori tomonidan nazorat qilinishi fuqaroning shaxsiy erkinligiga daxl qilib, sarson bo'lishi va halovati yo'qolishiga olib keladi. Shuningdek, fuqaroning jamiyatdagi mavqei, mahallada yurish-turishi, qarindoshlar va oilasi hamda farzandlari oldida o'ng'aysizlanishi masalalari ham bor. Bu norma xuddi bir huquqbuzarlik uchun ikki marta jazo berilishiga o'xshaydi. Bundan tashqari, normadagi huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi omillarning aksariyatini ijtimoiy xavf jihatidan kam ahamiyatli ekanligi, shu bilan birga, Konstitutsiya va inson huquqlari nuqtayi nazaridan qaralganda ham bu norma loyihadan chiqarib tashlash maqsadga muvofiq", deydi deputat.

"Adolat" SDP

Davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi davomida belgilab berilgan vazifalar odamlarda ertangi kunga bo'lgan ishonchni yanada oshirdi. Ayniqsa, Yangi Andijon shahrini Bobur shahri deb nomlash bo'yicha ilgari surilgan tashabbus keng jamoatchilikning diqqatiga gap bo'ldi, desak, yangilashmaymiz.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Mavliudaxon Adhamjonova** bu bo'yicha ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali o'z munosabatini bildirdi.

"O'zingiz betakror ilmiy va ijodiy merosi bilan millatimiz, xalqimizni butun dunyoga tarannum etgan buyuk ajdodimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga Bobur shahri, deb nom berilishi mutafakkir bobomizga bo'lgan yuksak ehtiroming amaliy namunasini ko'rsatadi. Barchamiz yaxshi bilamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qaysi yerida, qaysi o'lkasida bo'lmasin, bir umr Vatan sog'inchi bilan yashadi. Shu sababli, bugun buyuk ajdodimizning amonlari ushaldi, ul zot o'z yurtiga ruhan qaytib keldi", deb fikr bildirdi deputat.

O'zXDP

Shu yil 9-aprel kuni Prezidentimiz "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'z qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risida"gi Qonunni imzoladi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Iba Narizova** ushbu hujjatning ahamiyati to'g'risida ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida o'z munosabatini bildirdi.

"Oila kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda sud oilaviy (maishiy) zo'raonlikdan jabrlangan shaxsning talabiga ko'ra yarashish uchun muhlat tayinlamaydi. Uy-joy kodeksiga kiritilgan qo'shimchaga binoan esa turarjoydan foydalanish haqidagi nizolar ko'rib chiqilayotganda sud taraflarning kelishuviga asosan turarjoy mulkdorining tashabbusiga ko'ra turarjoyga majburiy tartibda kiritilayotgan tarafdin turarjoy mulkdoriga tegishli mutanosib sharoitlarga ega bo'lgan boshqa turarjoyga kiritish yoki ijaraqa olingan turarjoy uchun ijara haqini to'lash majburiyatini mulkdorning zimmasiga yuklatishi mumkinligi belgilandi. Bundan anglashiladiki, ushbu Qonun oilaviy (maishiy) zo'raonlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini yanada kuchaytirishga, shuningdek, xotin-qizlarning faolligini oshirishga xizmat qiladi", deydi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

Shu yil 14-aprel kuni "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarni sug'urtalash to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Rasmiy e'ton qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradigan ushbu hujjat qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarni sug'urtalash qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda bir yoki bir necha tavakkalchiliklar, xususan, tabiiy va texnogen ofatlar, yong'in, o'simliklarning zararkunandalar va kasalliklardan zararlantirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarining yuqumli kasalliklari tarqalishi va zaharlanishi, yovvoyi hayvonlar tomonidan ekinlarning payhon qilinishi yoki qishloq xo'jaligi hayvonlariga zarar yetkazilishi kabilarda bo'yicha qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomalarini tuzadi. Bundan ko'rish mumkinki, ushbu hujjat qiyin ob-havo sharoitlarida dehqon va fermerlar ko'rgan zararni oldini olish, ularning iqtisodiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi", deya ta'kidladi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Mohira Xo'jayeva** bu haqda o'z munosabatini bildirdi.

"Qonunga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda bir yoki bir necha tavakkalchiliklar, xususan, tabiiy va texnogen ofatlar, yong'in, o'simliklarning zararkunandalar va kasalliklardan zararlantirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarining yuqumli kasalliklari tarqalishi va zaharlanishi, yovvoyi hayvonlar tomonidan ekinlarning payhon qilinishi yoki qishloq xo'jaligi hayvonlariga zarar yetkazilishi kabilarda bo'yicha qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomalarini tuzadi. Bundan ko'rish mumkinki, ushbu hujjat qiyin ob-havo sharoitlarida dehqon va fermerlar ko'rgan zararni oldini olish, ularning iqtisodiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi", deya ta'kidladi deputat.

"Xalq so'zi".

«BORI ELGA YAXSHILIG' QILG'ILKI, MUNDIN YAXSHI YO'Q...»



O'ktamjon OXUNOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi,
xalq deputatlar Andijon viloyati
Kengashi raisi.

Tan olish kerak, davlatimiz rahbarining tashrifini andijonliklar qalbdan hayot va intiqlik bilan kutadi. Boisi har bir tashrif yangi davri boshlab bermoqda. Bundan yetti-sakkiz yil avvalgi holatni eslang. O'shanda har bir maznilda aholi orasida ishsizlik nihoyatda ortgan, bo'y yetgan yigitlarning ba'zilari daromad topish uchun xorijga yo'l olgan edi. Davlatimiz rahbari ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ishsizlikni bartaraf etish, odamlarni daromadli qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Bu borada, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, tomoqquadan umumiy foydalanish dasturlari ilgari surildi. Kerak bo'lsa, moddiy yordam ko'rsatildi.

Natijasi barchamiz ko'rib turibmiz. Bugungi kunga kelib andijonliklar uydan chiqmaganda holda daromad topish sirlarini o'zlashtirdi. Endi ular tomoqquadan uch marta hosil olib, hovli etagidan oquvchi ariqda ham baliq, o'rdak parvarishlab, nafaqat oilaviy byudjetini, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda ham faol qatnashmoqda. Ostona hatlab ko'chaga chiqmaganda, qo'lida na hunari, na kasbi bo'lgan, turmush o'rtog'ining topgan bir misol ruzig'iga umid qilgan ayrim ehtiyojmand opa-singillarimiz esa "temir daftar", "ayollar daftar" kabi ro'yxatlarni ortda qoldirib, nafaqat o'zini, balki o'zgalarni ham ish bilan ta'minlamoqda.

Darvoqe, bundan atigi yetti-sakkiz yil avval Andijon viloyatida ishlab chiqarish korxonalarini sanoqlik edi. Shu bois ishsizlik keng quloch yoygandi. Bugun amalga oshirilayotgan ishlohtlar va tadbirkorlarga yaratilayotgan qulay sharoit, imkoniyatlar tufayli yuzlab korxonalar ishga tushirildi. O'tgan yili aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 26,4 mln. so'mni tashkil qildi. Investitsiya dasturlari doirasida 380 ta loyiha amalga oshirilib natijasida 32 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bularning barchasi – yurtimizda, xususan, Andijon viloyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor samarasi. Bu yutuqlar insonga, uning turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilayotgani bilan ahmiyatlidir.

Istiqbolli loyihalarning ijobiy samarasi

Prezidentimiz har gal Andijon viloyatiga tashrifi doirasida bajarilgan ishlar, erishilgan yutuqlarni tahlil qilgan ekan, galdagi vazifalar xususida ko'rsatmalar beradi. Xususan, o'tgan yili 15-16-fevral kunlari viloyatda bo'lib, istiqbolli loyihalar bilan tanishdi. Qurilish, bunyodkorlik ishlarini yanada kengaytirish bilan bir qatorda sanoat, qishloq xo'jaligi, sayyohlik yo'nalishtirishda ham sezilarli o'zgarishlar yasash kerakligini uqtirdi. Shu bilan birga, tadbirkorlarni, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi. Ko'rsatmalar ijrosini ta'minlash doirasida ko'plab xayriy ishlar bajarildi.

"Nuroni" jamg'armasining viloyat bo'linmasi rahbari sifatida ko'p tadbirlarga taklif qilishadi, duomizni olishni xohlashadi. Shunda viloyatdagi deyarli barcha sohada erishilayotgan yutuqlardan dilim yayraydi. Jumladan, Buloqbo'shi tumanidagi "Western International New Building Materials LTD" kompaniyasiga qarashli zavodni ko'rib, hayratim oshgani rost. Xitoylik hamkorlar ishtirokida foydalanishga topshirilgan ushbu korxonada qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, 250 ming dollarlik loyiha asosida barpo etildi. Hozirgi kunda bu yerda ming nafar ishchi faoliyat yuritaypti.

Xitoyning "Tianji Hong An" kompaniyasi tomonidan 24 mln. dollar investitsiya mablag'i hisobiga Oltinko'l va Jalaquduq tumanlarida qalamliq parvarishi yo'lga qo'yildi. 600 gektar maydonda yetishtirilayotgan mahsulotning yillik hajmi 24 ming tonnani tashkil etadi. Buning uchun 2 ming nafar hamyurtimiz samarali mehnat qilmoqda. Joriy yilda qo'shimcha 1400 gektar yer maydoni ajratilishi tufayli ish hajmi ham, ishchilar soni ham ortadi.

Bu kabi yutuqlar davlatimiz rahbarining 2024-yil yanvar oyida Xitoy Xalq Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi

samarasidir. Mazkur tashrif davomida 32 ta 2,5 mlrd. dollarlik loyihani amalga oshirish yuzasidan kelishuvlar imzolangan edi. Hozirda ularning 80 foizida qurilish ishlari boshlangan bo'lsa, 5 ta loyiha muvaffaqiyatli ishga tushirildi. Andijon tumanidagi "Blu Bay" MChJ shular jumlasidan bo'lib, 36,8 mln. dollarlik loyihaga asos solindi. Hozirda 200 nafar ishchi tomonidan itishtirish radiatori ishlab chiqarilmoqda. Ular bir yilda 3 mln. dona mahsulot tayyorlab, xorijga 24 mln. dollarlik eksportni tashkil etishni rejalashtirgan.

Bu kabi loyihalardan ko'nglim ravshan tortadi. Sababi kechagina emasmidi, farzandlarimiz ishsizlik tufayli xorijdan rizq axtara boshlagani. O'zimizda ish o'rinlari bo'lsa, hech kim begona yurtda, oilasi davrasidan yiroqda mehnat qilmagan bo'lardi. Shukrlar bo'lsinki, Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi ish o'rinlari yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Endi qo'shni davlatlarda ishlayotgan o'g'il-qizlarimiz ona yurtimizga qaytib, undan-da ko'proq daromad olishga erishmoqda.

Olti yil davomida Rossiya Federatsiyasida mehnat qildim, – deydi Andijon shahrida yashovchi Ne'matillo Haydarov. – O'ziga yarasha tashvishlari ko'p ekan. Biroq chidashga to'g'ri keldi. Kutilmaganda, mahallamiz idorasidan qo'ng'iroq bo'ldi. Uymizga yaqin joyda ishlab chiqarish korxonasi ochilganini, bu yerda har bir ishchiga o'rtacha 4-5 mln. so'mdan haq to'lashayotganini ma'lum qilishdi. Hech ikkilanmay ortga qaytdim. Hozirda qo'shma korxonada ishlayapman. Oylik maoshim 6 million so'mga yetdi. Bu mening hayotimdagi eng osuda damlar, desam, xato bo'lmaydi.

Har kun ishga kelar ekanman, yo'l yoqalaridagi "Ishga marhamat" degan yozuvlarni ko'rib, ko'nglim ancha taskin topadi. Qarang, bir paytlar ishsizlikdan aziyat chekkan bo'lsak, endi o'zimizga munosib ish tanlash imkonimiz bor. Bu ham bo'lsa davlatimizda olib borilayotgan oqilona ishlohtlar tufaylidir.

Inson qadri aziz va mukarram

Hayotimda muvaffaqiyatli damlar ko'p bo'ldi. Ularning ayrimlari uchun yillar davomida igna bilan quduq qazigan misol mehnat qildik. Ular nechog'li og'ir kechsa-da, natijasi shunchalik totli bo'ldi. Ammo so'nggi yillardagi ishlohtlar samarasi sarhisobi kishini shoshirib qo'yadi. Quvonarli jihati shundaki, bugungi kunga kelib har bir sa'y-harakatimiz inson manfaatlarini uchun, hamyurtlarimizning bugungi kunidan minnatdor bo'lib yashashlari uchun xizmat qilmoqda. Bu borada davlat dasturlari joriy etilmoqchi, qonun va qarorlar imzolalanayotir. Natijada hatto eng olis hududlardagi mahallalarga ham taraqqiyot kirib bormoqda.

Oddiy misol, Kampirivot mahallasi nafaqat Andijon viloyatining, balki mamlakatimizning ham chekka manzili hisoblanadi. Shundoqqina Qirg'iz Respublikasi bilan chegaradosh mahallada hayot qaynaydi. Ko'chalar ravon, tunnning kunduzdan farqi yo'q. Ijtimoiy o'yektlarda xalq manfaatini uchun barcha sharoit yaratilgan. Qay bir xonadonga razm solmang, qo'shimcha daromad topish sa'y-harakatida. Yaqinda mahallada bo'lganidamda tadbiri odamlar hovlisidagi ariqdan oquvchi suvda ham baliq parvarishlashni yo'lga qo'yishganini ko'rib, tahsinlar aytdim. Qarang, shugina orqali bir yilda 10 – 15 mln. so'm daromad topishyapti ekan. Vaholanki, shu paytgacha bu ariqdagi suv shunchaki oqib turgan edi.

Tomorqalarga qarab esa ko'zingiz yayraydi. Uy hayvonlariyu parrandalar aholining doimiy e'tiborida. Chunki ularni parvarishlash uchun tabiiy sharoit mavjud. Xullas, mahalladoshlar uydan chiqmaganda holda bir yilda o'rtacha 25 – 30 mln. so'mgacha daromad topishyapti ekan. Bularni o'z ko'zim bilan ko'rgach, nima uchun mahallada ishsizlar va kambag'allar yo'q ekanini tushunib yetdim. Vaholanki, bu yerda ishlab chiqarish korxonalari mavjud emas. Aholi, ichki imkoniyatlarni ishga solgan holda yangi ish o'rinlarini o'zlar yarataypti. Bu ham bo'lsa, ishlohtlarning joylardagi ijobiy natijasi, albatta. Endi ayting, yurtimizda tinchlik-xotirjamlik bo'lmasa, bu kabi yutuqlar qayda edi?!

"Erkak kishining rizqi ko'chada", deydlar. Shu bois tongda ishga ketamiz, oilamizning farovon turmushini ta'minlash uchun mehnat qilamiz. Zamonning o'zgarishini qarangki, endilikda buning uchun uydan chiqish ham shart bo'lmay qoldi. Hatto bir sotim maydondan bir yilga tatigulik daromad olsa bo'lar ekan. Bir bosh sigirni bog'lash uchun bitta ustun kifoya ekanini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bularni anglash, o'z ko'zim bilan ko'rish, amalda sinab, oilamizni to'kis qilishimiz uchun yangi tashabbuslar kerak edi, xolos.

Ish stolimdagi qog'ozlarni birma-bir varaqalar ekanman, hisobotlar diqqatimni jalb etdi: so'nggi yillarda Andijon viloyatining o'zida Uychi tajribasini ommalashtirish jarayonida 70 ming 600 ta yangi ish o'ri yaratilibdi. Bu ko'rsatkich yil yakuniga qadar yana 8 mingtaga ortar ekan. Har bir ishchining ortida kamida uch-to'rt nafar oila a'zolari mavjud ekanini hisobga olsak, birgina ushbu loyihaning o'zidan 200 ming nafardan ko'p hamyurtlarimiz manfaatdor bo'libdi...

Baliq berma, qarmoq ber

Davlatimiz rahbari qaysi viloyatga tashrif buyurmasin, o'sha hududning ilg'or ish uslublarini ommalashtirish yuzasidan ko'rsatmalar beradi. Jumladan, Sayxunobod tumanida ishsizlikka barham berish borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarni joylarda qo'llash orqali aholi daromadini oshirish mumkinligi haqidagi fikrlari andijonliklarning ham g'ayratini jo'shtirib yubordi. Natijada viloyatdagi mavjud 909 ta mahallada Sayxunobod tajribasi asosida aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirishga kirishildi. Har bir mahalladan 7 tadan xonadon tanlab olinib, ularning oylik daromadlarini 50 – 60 mln. so'mga yetkazish ishlari boshlab yuborildi. Buning uchun 29 524 ta mikroloyiha hayotga tatbiq etildi. Natijada yana 61 ming nafardan ziyod hamyurtlarimiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi.

Masalan, Oltinko'l tumanidagi "Ijtimoiyat" MFYda yashovchi Gulchehraxon Mirzakarimovani olaylik. Ayolning imkoniyatlari o'rganilgan holda, hovlisida 1 sotixli issiqxona barpo etish, 40 bosh parranda boqish va 1 ta cho'k mashinasini sotib olishi uchun ko'mak berildi. Shuningdek, qo'ziqorin yetishtirishi uchun sharoit yaratildi.

“Bugungi Andijon kechagi Andijon emas. Atrofga nigoh tashlayman: shahar o'zgargan, hududlar chiroy o'chgan, hatto daraxtlar gulzorlar boshqacha. Bugunidan minnatdor, ertangi kundan umidvor xalqi ham boshqa. Yangi davr, yangi zamonning ruhi nafaqat tevarak-atrofini, balki insonlar ruhiyatini ham o'zgartirib yubordi!”

Sarhisob ham chakki emas. Yil yakunida ayolning daromadi 55 mln. so'mni tashkil etdi. Endi tasavvur qiling, bir yil oldin shu ayolning moddiy ta'minoti qanday edi? Hozir qanaqa? Bu ham bo'lsa, uzoqni ko'ra bilguvchi Yurtboshimiz tashabbuslarining hududlardagi ijobiy natijasi, deb bilaman.

"Muhtoj odamga baliq berma, qarmoq ber. Shunda u o'zini ham, o'zgalarni ham boqadi", degan qadimiy yo'l bor. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida ham shunga monand ishlar yo'lga qo'yilgani e'tiborga molik. Bir paytlar ehtiyojmandlar holidan xabar olib, moddiy-ma'naviy ko'mak berilardi-yu, oy o'tmay ularning ahvoli yana og'irlashaverardi. "Qo'ldan berganga qush to'yamas", deb shunga aytdilar-da. Endi yangi ish o'rinlarini o'zlar yarataypti. Ishi borlarga qo'shimcha daromad topish sirlari o'rgatilyapti. Kerak bo'lsa, mavzuga doir bilim berib, daromad topishga yo'naltirilmoqda.

Tahillarga e'tibor bering: 2022-yil boshida viloyatda kambag'allik darajasi 21,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida ko'rsatkich 8,9 foizga tushdi. O'tgan yilning boshida "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da turuvchilar soni 195,2 ming nafar edi. Ayni paytga kelib ular 99,4 ming nafarga kamaygan.

Turmush o'rtog'im betoblanib qolgach, o'z og'ir tashvishlari zimmandaga qoldi, – deydi Qorasuv shahrida yashovchi Zuhroxon Olimova. – Voyaga yetmagan uch nafar farzandimdan ortib, ishga kirolmadim. Otanonam, aka-ukalarim yordam berib turishdi,

biroq bu vaziyatni yumshatmadi. Ruhiy tushkunlikda yurgan kunlarning birida tuman hokimligi vakillari xonadonimizda bo'ldi. Sharoit bilan tanishib, avvaliga tikuv mashinasi olib kelishdi. Kasanachilik asosida mahsulot ishlab chiqara boshladim. Buyurtmachi tayyor ishlarni uyimizdan olib ketadigan bo'ldi. Shu tariqa turmush o'rtog'im va bolalarimga qarab, ham daromad topishga kirishdim. Eng muhimi, o'z og'irimizni o'zgalarga madadkor bo'layotgani ibratli, albatta! Zuhroxon kabi ayollarni kuzatar ekanman, davlatimiz rahbarining har bir tashabbusi uzoqni o'ylab qilingan dadil harakat ekaniga yana bir bor amin bo'laman.

Qo'shnihilik – ming yilchilik

Bir vaqtlar taniqli olimlar, ekspertlar Farg'ona vodiysi geosiyosiy keskinlik o'chog'iga aylinishini bashorat qilgan, har dam portlashga shay holdatdagi "porox bochkasi"ga o'xshatgan edi. Bu bejiz bo'lmay, aholi qatlami zillat hududda turli millat vakillari istiqomat qilar, ustiga-ustak O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari o'rtasidagi munosabatlari tarang, chegaralar noaniq edi. Ana shunday murakkab sharoitda Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosiy irodasi, uzoqni ko'zlagan va chuqur o'ylangan ishlohtlari bilan mintaqadagi muhitni butunlay o'zgartirdi. Bugun uch davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari tufayli Farg'ona vodiysi yangi imkoniyatlar va bunyodkorlik makoniga, yaxshi qo'shnihilik va do'stlik timsoliga aylandi.

Buni Andijon viloyatida ham ko'rish mumkin. Hudud Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lib, ma'lum vaqt bordikeldi munosabatlarda cheklovlar yuzaga kelgandi. Har ikkala davlat rahbarlarining uchrashuvlaridan so'ng ana shu cheklovlar olib tashlandi. Natijada viloyatning o'zida 4 ta chegara o'tkazish punkti qayta ish boshladi. Birgina Xonobod shahridagi chegara postining o'zida bir sutkada 3 ming nafar fuqaro qatnovi tashkil etilib, 150 – 200 ta avtomashina harakati yo'lga qo'yildi.

Ikki xalqning tarixi, madaniyati, turmushi bir, – deydi O'sh shahrida yashovchi tarixchi olim Abdurayim Amatov. – Jumladan, Qirg'iz Respublikasining O'sh, Jalolobod, O'zgan shaharlarini o'zbeklasiz, O'zbekistonning Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarini qirg'izlasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bizning ota-bobolarimiz quda-andachilik qilishgan. Bordi-keldi munosabatlari faqat ezgulikka xizmat qilgan. Shu bois chegara postlarining qayta ishga tushirilishidan hammamiz manfaatdormiz.

Qo'shnihilik aloqalarining shakllanishi natijasida, avvalo, o'zaro bordi-keldi munosabatlari qayta tiklandi. Bundan barcha andijonliklar qatori o'zimiz ham xursandman. Axir kechagina emasmidi O'shda yashovchi yaqinlarimizning ta'ziyasiga bora olmay, xijolat bo'lganimiz. Farzand otasining janosida qatnasha olmagani, o'ta o'z qizining holidan xabar olmagani kechagidek yodimda. To'ylarda bir safda turishni-ku orzulashdan boshqa imkonimiz qolmaganda,

Prezidentimiz, avvalo, qo'shnihilik aloqalarini mustahkamlashga e'tiborni qaratgach, hammasi tubdan o'zgarib ketdi. Endi qo'shnilar bilan avvalgidek qon-qardosh bo'lib yashamoqdamiz. Xalqaro, do'stona munosabatlarni qayta ilidiz o'ta boshladi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning qayta tiklanishi sayyohlik salohiyatining ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bois 2024-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarning katta qismini qirg'izistonlik zamondoshlarimiz tashkil etdi. Ularning mamlakatimiz hayoti bilan tanishishi va maroqli hordiq chiqarishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Xususan, 14 ta mahalla "Turizm qishlog'i" maqomini oldi. O'tgan yilning o'zida 44 ta yangi sayyohlik tashkiloti ochildi.

Xo'jaobod tumanidagi "Imom ota" ziyoratgohini Qirg'iz Respublikasida ham yaxshi bilishadi, – deydi Jalolobod viloyatining Suzoq tumanidan tashrif buyurgan Sayqal Jabbarqanova. – Bu yerda sayyohlar uchun yaratilgan sharoitlar qoniqarli. Ayniqsa, yaqinda o'rnatilgan osma ko'priq ko'pchilikni safarga chorladi. Shu bahona hudud haqidagi tarixiy ma'lumotlarga ham ega bo'lmoqdamiz.

Elektr energiyasi o'zimizda ishlab chiqariladi

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Andijonga avvalgi tashrifi chog'ida so'nggi besh yilda aholi xonadonlari, ishlab chiqarish korxonalarini ortib borayotgani natijasida Farg'ona vodiysi viloyatlarida elektr energiyasiga talab 40 foizga ko'payganini ta'kidlagandi. Yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari ko'paytirish, quyosh, shamoldan elektr energiyasini olishga qaratilgan loyihalarni hamda gidroelektr stansiyalarini ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi.

Bundan, avvalo, aholi mamnun bo'ldi. Negaki, unda ularning uzoq yillik manfaatlarini himoyasi mujassam edi. Sir emas, kuz-qish mavsumi yaqinlashgani sari andijonliklarni elektr ta'minotidagi uzilishlar sarosimaga sola boshlardi. Bu muammo, oxir-oqibat, tadbirkorlarni ham tashvishlantiradigan bo'ldi. Boisi ishlab chiqarish jarayonidagi uzilishlar tufayli mahsulot hajmi qisqaradi, ishchilarning oylik maoshi kamayadi.

Nihoyat, Prezidentimizning aniq ko'rsatmalariga asosan muammoning ijobiy yechimini ta'minlashga dadil kirishildi. Topshiriqlar ijrosi doirasida 2024-yil va joriy yilning o'tgan davri mobaynida loyiha qiymati 28 mln. dollarga teng 9,55 MVtli 8 ta mikrogidroelektrostansiya ishga tushirildi. Natijada 13 mingta xonadon uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlana boshladi. Xususan, 2025-2026-yillarda viloyatda "O'zbekgidroenergo" AJ, mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan umumiy qiymati 500 mln. AQSH dollariga teng loyihalar doirasida jami quvvati 200 MVt bo'lgan 763 ta kichik va mikrogidroelektrostansiya qurish, foydalanishga topshirish bo'yicha chorah-tadbirlar belgilanib, amaliy ishlar olib borilmoqda.

Joriy yil davomida Jalaquduq, Baliqchi, Buloqbo'shi, Oltinko'l, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepa, Marhamat, Izboskan, Paxtaobod tumanlari hamda Xonobod shahrida qiymati 70 mln. dollarga teng loyihalar doirasida quvvati 31,3 MVtli 14 ta kichik GES, qiymati 50 mln. dollarga teng loyihalar doirasida quvvati 23,7 MVtli 458 ta mikroGES ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifi ham Andijon viloyati va andijonliklar uchun yangi davrni boshlab berdi. Bobur shahridan boshlangan ezgu mujdalar, o'zgarish va yangilanishlar bugun har bir tuman, mahalla, ko'cha va xonadonlarda bo'y ko'rsatmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Andijon zaminida Yangi O'zbekiston g'oyasi, Yangi O'zbekiston nafari har bir mahalla, har bir xonadonga kirib bormoqda, xalqimizni baland-baland marralarga undamoqda. Bu – ishlohtlarimizning biz kutgan, butun xalqimiz kutgan eng katta, eng muhim natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi.
Zotan, yaxshi maqsadlar, amallar va harakatlar yangi natijalarga, muvaffaqiyatlarga boshlaydi. Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, hayotbaxsh tashabbuslar – yaxshilik nomi bilan butun mamlakatga ziyo sochaveradi. Ezgulikning esa umri boqiydir. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'biri bilan aytganda: Bori elga yaxshilig' qilig'lik, munda yaxshi yo'q – Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'!



HAYOTIY TASHABBUSLAR, INSONPARVAR G'UYALAR

Shu kunlarda yangi O'zbekiston tarixi sahifalariga eng yorqin voqe'liklar muhrlanmoqda, bu nafaqat xalqimiz, balki butun mintaqa ertasi uchun muhim solnomaga aylanishi, shubhasiz. Xususan, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga mezbonlik qilgan bu yurt yana bir karra dunyo sivilizatsiyasi beshigi bo'lganligini jahonga namoyon etdi. Mazkur tarixiy anjuman kelajak uchun ham parlamentlararo hamkorlikning muhim yo'nalishlarini belgilab berdi.



tashabbuslar anjuman qatnashchilari tomonidan zo'r g'urur va iftixor bilan qabul qilindi. Xususan, Yevropa qengashi Prezidenti Antoniu Koshta Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan o'zaro manfaatli, chuqur va istiqbolli sheriklik qurishga tayyorligini ta'kidlab, "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoning besh davlati o'rtasida diplomatik munosabat o'rnatilganiga 30 yil to'ldi. Boshqacha aytganda, bizni bog'lab turuvchi mustahkam rishtalar ahamiyatini to'liq anglash payti keldi", deya ishonch bildirdi.

Ozarbayjon Milliy Mejlisi a'zosi Rizvan Nabiye'vning "Toshkent assambleyasi ovozini butun dunyo eshitmoqda", degan so'zlari O'zbekistonda bunday nufuzli tadbirga mezbonlik qilishi nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bunday adolatiy fikrlarga asoslanib xulosa qilish joizki, geosiyosiy fonda ko'p qutbli, iqtisodiy diplomatiyaga tayangan tashqi siyosat eng to'g'ri yo'l ekanligini dunyo hamjamiyati tasdiqlamoqda. Ahamiyatli, mamlakatimiz rahbarining mintaqa integratsiyasini amalga oshirishdagi mas'uliyatli xizmati dunyo hamjamiyati nigohida o'zining asl bahosini oldi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti rektori.

MUDOFAA yangiliklari

"Do'stlik - 2025" harbiy o'quv mashg'ulotlari boshlandi



Puna shahridagi "Aundh" xalqaro mashg'ulotlar bazasida "Do'stlik - 2025" Hindiston - O'zbekiston qo'shma harbiy mashg'ulotlari bo'lib o'tmoqda.

Uning ochilish marosimida ikki mamlakat Mudofaa vazirligi vakillari qatnashib, hamkorlikdagi o'quv mashg'ulotlari o'zaro harbiy aloqalarni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning bilim, ko'nikma va tajribalarini oshirishga xizmat qilyotganini e'tirof etdi.

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentidan xabar berishlaricha, 2019-yildan beri muntazam tashkil etib kelinayotgan mazkur o'quv mashqlari ikki mamlakat o'rtasidagi harbiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadiga qaratilgan bo'lib, har yili O'zbekiston hamda Hindistonda navbatma-navbat o'tkazilmoqda. Qo'shma mashg'ulotlar 28-aprelga qadar davom etadi.

oshlar uchun tarixi saboqlari



Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, tarixiy xotirani mustahkamlash, ajdodlarimizdan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish - har birimizning muqaddas burchimiz.

Aynan shunday ezgu maqsadni ko'zlab "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeyiga tashkil etilgan ekskursiya bo'lib o'tgan unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi.

Distab yoshlarga Mudofaa vazirligi va tegishli idoralar vakillari ishtirokida majmuaning o'tmishdagi hayot sahnalari, okoplar, blindajlar va dala oshxonalarini kompozitsiyalari, temir yo'l vokzali, eski kutubxonalar, tibbiyot punktlari aks ettirilgan hududlar bilan tanishtirildi.

"Shon-sharaf" davlat muzeyiga urushning mashaqqatli kunlari manekenlar, yasama texnikalar va real eksponatlar orqali namoyish etildi.

Chekka hududlarda tibbiy ko'rik



Markaziy harbiy klinik hospitali hamda Termiz harbiy hospitalining malakali shifokorlari hamkorligida Surxondaryo viloyatining o'lis hududlarida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkil etilmoqda.

Bu galgi tibbiy tadbirlar Sariosiyo, Denov, Jarqo'rg'on va Sherobod tumanlarida joylashgan harbiy qismlar hamda maassalardala xizmat qilyotgan Vatan posbonlarining oila a'zolari uchun o'tkazildi.

Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikka malakali nevropatolog, terapevt, onkolog, travmatolog hamda ginekologlar jalb qilib, bolalardagi surunkali xastalik hamda ayollarda xavfli o'sma kasalligini aniqlash mumkin bo'lgan kolposkopiya kabi tekshiruvlar o'tkazildi.

Ko'rik davomida salomatlik borasidagi savollarga mutaxassislar tomonidan batafsil javob qaytarildi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

Ta'kidlash joizki, bu galgi assambleya yuqori saviyada o'tkazilib, dunyoning turli burchaklaridan kelgan parlament a'zolarini muhim muloqot maydonida jamladi. Prezidentimizning assambleyada so'zlagan nutqi esa bu jarayonga alohida mazmun-mohiyat bag'ishladi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida O'zbekistonning Parlamentlararo Ittifoq bilan ko'p yillik samarali hamkorligini alohida ta'kidladi. E'tiborlisi, mamlakatimizning demokratik islohotlar yo'lidagi qat'iy qadamlari, jumladan, parlament rolini kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini

himoya qilish borasidagi ishlar assambleya ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi. Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasida belgilangan asosiy maqsadlar va ustuvor yo'nalishlar yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Tarixiy nutqda bugungi kunda jahon hamjamiyati duch kelayotgan murakkab vaziyat, global xavf-xatarlar va ularni bartaraf etishda parlamentning o'rni masalasi bayon qilindi.

Doimo hayotiy tashabbus va takliflari bilan dunyo e'tiborini qaratgan O'zbekiston Prezidenti parlamentlarga nafaqat qonun ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi, balki xalqning fikrini ifoda etuvchi, jamiyatdagi muammolarni aniqlovchi va ularni hal qilish yo'llarini izlovchi muhim institutlarni sifatida qarashga

chaqirdi. Parlament a'zolari xalq bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning muammolariga qonunchilik tashabbuslari orqali yechim topishga intilishi zarurligi aytiladi.

Parlamentlararo Ittifoqning kelgusidagi faoliyatiga oid bir qator muhim takliflar ham ilgari surildi. Xususan, global muammolarni hal etishda parlamentlarning rolini yanada kuchaytirish, yoshlarni parlament faoliyatiga kengroq jalb qilish, gender tenglikni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlarning faol ishtirokini ta'minlovchi zarur yechimlarni ko'rsatdi.

O'z navbatida, bu taklif va

Baraka

Saidahmad ota Hikmatov O'rta Chirchiq tumanidagi Kuchluk mahallasida istiqomat qiladi. Tabarruk 80 yoshda ham bardam, ko'zidagi nur yulduzdek chaqna turadi. Qariyb olti muchal yoshi mobaynida ko'p savdolarini boshdan kechirgan. Naq o'n ikkita kasbda mehnat qilgan.

TO'RT SO'MNI QIRQ MILLIONGA AYLANTIRGAN OTAXON

Distab o'qituvchilar tayyorlash kursini bitirib, Kuchlukdagi 17-maktabda faoliyatini boshlagan qahramonimiz keyinchalik haydovchilik, chilangarlik, avtomobil ta'mirluvchisi, qo'yning, bir yigitga neki hunar bo'lsa, barchasida halol ter to'kkan. Bu orada 1992-yilda ikki yil arab alifbosiga asoslangan o'zbek tili

narxga sotib keladi. Bu yil 40 million so'mning nari-berisida daromadni ko'zlab turibmiz. "Hovling gulga, qo'ling pulga to'lib tursa yomonmi?" deyman o'g'limga...

Saidahmad otaning uyiga Kuchluk mahallasi raisi Karim Sa'dullayev bilan borgandik. Karim aka ham otaxonning sobiq



UMMONDAN YIROQMIZ, IMKONDAN EMAS

Baliq chavoqlari ishlab chiqarish hamda tabiiy suv havzalari va sun'iy ko'llardan foydalanish yurtimizda uzoq yillar eng zaif bo'g'in sifatida qolib ketgandi - ayniqsa, baliqchilik sohasi. Natijada sun'iy ko'llarning hosildorligi bir gektarda 20 sentnerdan oshmasdi. Bu - jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham past.

Izlanish

Navoiy viloyatida intensiv usulda baliqchilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda bugun gektaridan 30 - 35 tonnagacha baliq olinmoqda. Unga qadar bu havzalarda hosildorlik 2 tonnadan ham oshmagan.

Baliqchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan 800 ming gektarlik ko'l va suv omborlari sathining 175 609 gektari viloyatimiz hududiga to'g'ri keladi, - deydi "Navoiy baliqsanoat" MChJ rahbari Panji Ro'ziqulov. - Zarafshon daryosi Xatirchi, Karmana, Navbahor va Qiziltepa tumanlaridan o'tgan, o'ng va so'l sohillarida baliqchilikni sun'iy havzalarda qafas usulida rivojlantirishning qulay imkoniyatlari mavjud. Biroq mavjud suv sathining 1/8 qismidagina baliqchilik bilan shug'ullanuvchi 252 ta fermer xo'jaligi faoliyat yuritadi. Shundan 480 gektari to'lg'icha intensiv usulda baliq yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Viloyat hududidagi yirik suv havzalaridan biri - To'dako'l qariyb 21 ming gektar maydonini egallab, asosan, sug'orish maqsadlarini nazarda tutadi. Shunga qaramasdan, uzoq yillar undan baliqchilik havzasida foydalanish, ko'lda baliq ko'paytirish, taqsimlash va ovlash hamda turli kasalliklardan himoya qilish vazifalari bir qancha idoralar zimmasiga yuklangandi. Bu boshboshdoqlik va tabiiy ne'matlardan xo'jasizlaracha foydalanishga yo'l ochib, uning oqibatlari yillar o'tib o'zini ko'rsatdi. Buni raqamda ifodalasak, yangi ming yillik arafasida havza hosildorligi gektariga 4,5 kilogrammga tushib ketdi.

Bugun To'dako'l suv havzasida faoliyat yuritayotgan birgina "Golden layk fish" MChJ tomonidan 2019-yilda Vengriya davlatidan "venger karp" zotli 390 dona baliq olib kelib, ishlab chiqarish ilmiy asosda yo'lga qo'yildi. Vengriya genetik instituti olimlari bilan yaqin hamkorlik baliq turini ko'paytirish, zotini yaxshilash, iqlim o'zgarishiga chidamli, jahon bozorida xaridorlar baliq mahsulotlari tayyorlash imkonini yaratdi. Natijada 20 mln. dona baliq chavog'i, jumladan, iqlimlashtirilgan 6 ming dona "venger karp" baliqi yetishtirildi. Eronlik investorlar bilan hamkorlikda baliqlarni qafas usulida boqishga mo'ljallangan, xitoylik ishlabarmonlar tajribasi bo'yicha 10 ming donadan baliq yetishtiriladigan uskunalar keltirilib o'tmadi. Ushbu choralar samarasi o'laroq, baliq yetishtirish hajmi o'tgan yili 5,5 ming tonnadan oshdi. Eng muhimi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan aholiga sifati parhezboq mahsulot yetkazib berish

bilan birga, intensiv usulda baliq yetishtirish tajribasi ommalashib, aynan, To'dako'l'da yetishtirilayotgan baliq chavoqlarini xarid qilish uchun respublikaning turli hududlaridan kelayotgan ishlabarmonlar soni ko'paydi. Xorij texnologiyalari asosida intensiv usulda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yayotgan xo'jaliklar tomonidan Navbahorda 150, Qiziltepa 120, Karmanada 100, Xatirchida 60 va Konimexda 50 gektar sun'iy suv havzalari intensivlashtirildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 15 ta mahallada 220 ta aholi xonadoni vakillarini jalb qilgan holda baliqchilik tashkil etildi, - deydi "O'zbek baliqsanoat" uyushmasi raisi o'rinbosari Maqsud Ostunov. - Qiziltepa, Karmana, Navbahor, Xatirchi, Konimex tumanlaridagi aholi xonadonlarida umumiy qiymati 63 mird. so'm bo'lgan qo'shimcha 12 ta hududiy loyiha ishga tushirilishi natijasida 97 ta ish o'rni yaratildi. Eng muhimi, o'tgan yili viloyatdagi xo'jaliklar tomonidan 14,7 ming tonna baliq yetishtirilishi va ovlashiga erishildi. Joriy yil yakuniga qadar 900 gektar mavjud sun'iy suv havzalarga aerator moslamalarini o'rnatish va baliqlarni balanslashtirilgan oxipta yem mahsulotlari bilan oziqlantirish hisobiga baliq yetishtirish hajmi 4-5 barobargacha oshirildi. 1 gektar havzaga uchtdan, jami suv havzalarga 2700 ta aerator moslamasini o'rnatish ishlari tijorat banklari va mahalliy hokimliklar bilan birgalikda amalga oshirildi. Natijada 900 gektar suv havzalarda 22,5 ming tonnagacha baliq yetishtirildi, qo'shimcha 470 ta ish o'ri ochiladi. Shuningdek, umumiy qiymati 130,5 mird. so'm bo'lgan qo'shimcha 13 ta hududiy loyiha ishga tushirildi. Jumladan, hududlar imkoniyatidan kelib chiqib, 900 ta aholi xonadonini jalb qilgan holda intensiv usulda baliq yetishtirishni tashkil etish rejalashtirilmogda.

Mazkur dasturlar doirasida yaqinda Navbahor tumanida joylashgan "YASHIL OROL BY grand" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan super intensiv usulda baliq yetishtirish loyihasi to'liq ishga tushirildi. Ushbu baliqchilik xo'jaligi tomonidan 16 gektar maydondan iborat ko'llarda, asosan, "sazan" va "oq do'ngpeshona" baliqlari parvarishlanadi. Super intensiv usulda baliq yetishtirish uchun uskunalar bilan bir qatorda,

Albatta, mazkur tadbirlar havzaning fauna va florasini saqlab qolish bilan birga, o'z navbatida, aholi dasturxoniga sifatlil, hamyonbop baliq mahsulotlari yetkazib berish, baliq iste'moli ko'lamini kengaytirish hamda talabdan oshig'ini eksportga yo'naltirish imkonini beradi.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").

Bolalar milliy tibbiyot markazida shu yilning o'tgan uch oyi mobaynida 1130 ta jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli bajarildi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.00 Topshirildi - 23.55 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi